

GEOSIYOSATNING YANGICHA MODELII.

Jummayev Azamat Do'sqobil o'g'li

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

E-mail: azamatjumayev31@gmail.com

Umrzoqov Nurbek Otabek o'g'li

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

E-mail: umirzoqovnurbek6@gmail.com

Boboyev Faxriyor Baxtiyor o'g'li

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

E-mail: fahrier625@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bugungi davrdagi eng muxim masalalarni o'ziga qamrab olgan geosiyosat sohasi va undagi yangicha tendensiyalar, ularning hususiyatlari, shakllanishi va rivojlanishiga ta'sir qiladigan omillar masalasi yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *geosiyosat, tendensiya, milliy rivojlanish, milliy manfaat, konsepsiyalar, Mondializm.*

KIRISH

Siyosatning bu sohasi bugungi kunda katta sohalar bo'lgan global siyosiy, iqtisodiy va boshqa jarayonlarni boshqarish san'ati haqidagi fan sifatida qaralmoqda. Hatto, qadimgi dunyo olimlari ham siyosiy faoliyat (ular birinchi navbatda hukmdorlarning faoliyatlarini tushunishgan) va bu faoliyat sodir bo'lgan geografik makon o'rtasidagi tabiiy bog'liqlikni payqashgan. Darhaqiqat, uzunligi, maydoni, rel'efi, o'simliklari, iqlimi, daryolarni suv to'siqlari va aloqa yo'llari, dengizni siyosatda alohida geografik omil va hokazolarni bilmasdan turib, siyosiy tadbirlarni rejalashtirish mumkin emasligi haqidagi va shunga yaqin fikr-mulohzalarni bildirishgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Geosiyosat, geografik siyosat — siyosatshunoslikdagi nazariya. Geosiyosat atamasi muayyan bir mamlakat o'rnini, tabiiy boyliklari, iqlimi va boshqa geografik omillarining davlat tashqi siyosatiga (geografik-siyosiy strategiyasi va hokazoga) muayyan ta'sirini ifodalash uchun ishlatiladi. "Geosiyosat" atamasi bugungi kunda ikki xil ma'noda qo'llanilmoqda: tor (fan sifatida) va keng (siyosiy amaliyot sifatida). Tor ma'noda geosiyosat o'z uslubiga ega bo'lgan va davlatning olib borayotgan siyosatining geografik omillarga bog'liqligini o'rganuvchi ilmiy asosda o'rganishga xizmat qilayotgan bo'lsa, keng ma'noda bu tushuncha geografik va hududiy joylashuv bilan bog'liq omillarni davlatlarning olib boradigan siyosatini bildiradi. XX asr oxiri - XXI asr boshlarida. "geo" o'zagi ikkinchi ma'noga ham ega bo'ldi. Endi u tobora ko'proq siyosatning "sayyoraviy", "global" o'lchovi sifatida talqin qilindi va u gegemonlikka intilayotgan kuchlar yoki harbiy bloklar (AQSh va SSSR, NATO va Varshava shartnomasi) o'rtasidagi munosabatlarda tez-tez qo'llanila boshladi. Terminning ikkinchi qismi – "siyosat" bu mazmunda hukmronlikni amalga oshirish, hokimiyatni, makonni egallash va uni rivojlantirishni anglatadi. So'nggi paytlarda u ham sezilarli o'zgarishlarga duch keldi, chunki geosiyosatning zamonaviy aktyorlari yangi hududlarni zabt etish va rivojlantirishga unchalik intilmayaptilar, chunki ular maksimal mumkin bo'lgan bo'shliqlarni nazorat qilishga intilmoqda. Bu ham zamonaviy geosiyosatning o'ziga xos xususiyati - butun hududni emas, balki ko'p qismini ushbu hududlar va oqimlarning aloqa liniyalarini (moliyaviy, tovar, mehnat va boshqalar) nazorat qilish va shu bilan o'zlarining rivojlanishi va gullabyashnashi uchun eng qulay sharoitlarni ifodalashga xizmat qiladi. K.S.Hojiyev geosiyosatni "zamonaviy jahon hamjamiyatining fundamental tuzilmalari va sub'ektlari, global yoki strategik yo'nalishlari, hayotining, faoliyati va evolyutsiyasining eng muhim qonuniyatlari va tamoyillarini o'rganuvchi fan" deb hisoblaydi. A.G.Dugin esa geosiyosatni mafkura deb hisoblaydi - "hokimiyat dunyoqarashi, hokimiyat va hokimiyat uchun ilm", "hukmronlik ilmi" sifatida bu tushunchaga yondashadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

G'arb siyosatshunoslari tomonidan ham geyosiyosat atamasini turlicha tushunishimiz mumkin. Masalan, Amerika ensiklopediyasida geosiyosatga an'anaviy yondashuv "siyosiy hodisalarning geografik jihatlari"ni o'rganuvchi fan sifatida bayon etilgan. Xalqaro ensiklopediya geosiyosatni "tegishli tashqi siyosat yuritish maqsadida kontinental va dengiz yashash joylari hamda siyosat o'rtasidagi munosabatlarni o'rganuvchi intizom" deb ta'riflaydi. K.Greyning fikricha, "geosiyosat xalqaro siyosiy kuch va geografik omil o'rtasidagi munosabatlarga tegishli bo'lib, xavfsizlik va xalqaro tartibning "yuqori siyosati"ni o'z ichiga oladi; uzoq muddatli fazoviy munosabatlarning kuch markazlarining yuksalishi va tushishiga ta'siri va texnologik, siyosiy-tashkiliy va demografik jarayonlar davlatning nisbiy ta'sirini ifodalovchi tushuncha" sifatida qaraydi. Geosiyosatni turlicha tushunish, bu fan bilan turli davrlarda turli olimlarning yuqori va keng darajada shug'ullanishi turli maktab asoschilarning konsepsiyalariga asos solishlariga olib keldi va natijada bu konsepsiyalar zamonaviy xalqaromunosabatga davlatlarning eosiyosatida muhim ahamiyat kasb etdi. Ulardan ba'zilarini ilmiy-falsafiy jihatlarni tahlil qilish va o'rganish maqsadgamuvofiqdir. Birinchi konsepsiya – bu Atlantizm bo'lib, u "Shimoliy Amerika va Yevropa davlatlari o'rtasida demokratiya, shaxsiy erkinlik va inson huquqlarining umumiy qadriyatlariga asoslangan madaniy, sivilizatsiyaviy, siyosiy, iqtisodiy va harbiy yaqinlashuv kontsepsiyasi"¹ hisoblanadi.

MUHOKAMA VA NATIJA

Yana bir tendensiya esa mondializm (fransuzcha monde — tinchlik). Bu mafkuraviy konsepsiyaga ko'ra, barcha davlat va xalqlar yagona sayyora makoniga birlashadi, unda etnik, milliy, diniy va madaniy chegaralar yo'q qilinadi. Mondializm g'oyalari BMT (1945), Bilderberg klubi (1954) tashkil etilishida, yopiq yig'ilishlarda jahon taraqqiyoti muammolari muhokama qilingan "Pax Americana" strategiyasida (so'zma-so'z "Amerika uslubidagi dunyo") o'z ifodasini topgan. - AQShning global hukmronligi strategiyasi, shuningdek, neoatlantizmning mashhur tarafdorlari Z.Bjezinskiy, G.Kissingerlar hisoblanadi. Konvergensiya nazariyasi kapitalizm va sotsializmning yaqinlashishi natijasida yangi sivilizatsiya vujudga kelishiga asoslangan edi. Fukuyama "tarixning

oxiri"ni SSSRning parchalanishi va demokratik va bozor qadriyatlarining butun dunyoga tarqalishi bilan bog'ladi. Geoiqtisodiyot boy Shimol va kambag'al janub o'rtasidagi qarama-qarshilikni, "pul davri"ning o'rnatilishini o'z zimmasiga oldi². Yevropa qit'asidagi geosiyosiy tadqiqotlarning eng ta'sirli yo'nalishi 1960- yillarning oxirida paydo bo'lgan yo'nalish bo'ldi. Fransiyada "Yevropa" va "G'arb" tushunchalariga qarshi "yangi o'ng" maktabi shakllandi. Bu maktab, "Global geopolitika" monografiyasi mualliflarining fikricha, hokimiyatni qayta tiklashga qaratilgan edi. Neo-yevrosiyo yo'nalishi ham muhim geosiyosiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Bu konsepsiya yevrosiyochoilikning asosiy g'oyalarini jamlagan. Yevrosiyochoilik nazariyasi yaratuvchisi P. N. Savitskiy (1895-1968) fikriga ko'ra, uning mohiyati Rossiyaning tushunishidir.

Gumilyov yevrosiyo nazariyasidan kelib chiqqan holda quyidagi geosiyosiy xulosalarni taklif qildi:

1. Yevrosiyo - superetnosning rivojlanish joyi yoki Buyuk rus etnosi birlashmasidir.

2. Buyuk rus davlatchiligining negizida joylashgan Dasht va o'rmon geosiyosiy sintezi Yevrosiyo materigining g'arbiy va sharqiy qismlari ustidan madaniy va strategik nazorat omili bo'lib xizmat qiladi.

3. Yaqin kelajakda sayyoramizning siyosiy va madaniy xaritasini tubdan o'zgartiradigan, oldindan aytib bo'lmaydigan va kutilmagan "ehtirosli turtki" bo'ladi.

yo'nalishi o'zining keng qamrovliligi va bugungi geosiyosat munosabatlarida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda bu yo'nalish o'zining xususiyatlari va xalqaro siyosiy munosabatlarda ko'zga tashlanib bormoqda. Ivashov L. G.ning ta'kidlashicha: "Geosiyosatda odamlar, geografiya, tarix, iqlim, inson muhiti bir-biri bilan chambachas bog'liqdir"³. Demak, "geosiyosat "fanlar fani" bo'lishi kerak bo'lgan soha bo'lib, faqat uning barcha sohalarining asosiy qismiga ilmiy, falsafiy, diniy, ezoterik bilimlar tashkil qiladi"⁴. Bugun Markaziy Osiyodagi geosiyosiy munosabatlarda ham ushbu konsepsiya ko'proq ko'zga tashlanmoqda. Bu yo'nalish kapitalistik tizimni rivojlanishiga bog'liq holda jamiyatda o'z o'rnini egallagan konsepsiya hisoblanadi.

Shundan kelib chiqib, ushbu yo'nalish bugungi globallashuv jarayonida muhim geosiyosiy yo'nalish hisoblanadi. Demak, Markaziy Osiyoda mafkuraviy jarayonlar tushunchasi bu hududdagi davlatlarning ming yillardan beri sinalgan hamkorligi asosida tashllangan va davlatlar o'z fuqarolarini ongi va tafakkurini demokratik rivojlanishga tomon qaratayotgan bir davrdagi munosabatlarni ifodalab, o'ida mintqa mamlakatlaridagi mafuraviy munosabatlarning umumiy o'ziga xos jihatlarini ifodalaydi⁵

Xulosa qilib aytganda geyosiyosat barcha davlatlarni o'rnini, tabiiy boyliklari haqidagi malumotlarni to'liq o'rganishga yordam berar ekan geyosiyosatning rivojlantirsak bir davlat haqida to'liq malumotga ega bo'lishimiz mumkin ekan. Globallashuv jarayonida geosiyosatda turli konsepsiyalar mavjud bo'lib, ularning keng qamrovliligi jihatidan atlantizm yo'nalishi ajralib turadi. Aynan bu yo'nalish Yevropa siyosiy tizimida muhim o'rin va ahamiyatga ega. Atlantizm bu jarayonlarda siyosiy muvozanatni shakllantirish va xalqlarning milliy manfaatlarga xizimat qildish bo'yicha ahamiyati yuqori.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Н.В.Устинова, Геополитика, учебное пособие, Екатеринбург Издательство Уральского университета 2017, 13-стр
2. Глобальная геополитика / под ред. И. И. Абылгазиева [и др.]. М. : Изд-во МГУ, 2010. С. 59.
3. Велесова книга. Веды об укладе жизни и истоке веры славян (авторский перевод Славера (Георгия Максимен-ко). - М.: НОУ «Академия управления», 2010. -7с.
4. Ивашов, Л.Г. Геополитика Русской цивилизации / Л.Г. Ивашов; отв. ред.О.А. Платонов. - М.: Институт русской цивилизации, 2015. - 10 с
5. Khujanova T. Special proficiency-the provision of youth protection //Scientific researches for development future. – 2019. – С. 50-52.
6. Safoev S. Markaziy Osiyodagi geosiyosat, - T .: 2005, 41-b
7. Нартов.Н.А, Геополитика, -М.: Унити 2000, 45-стр

8. V Sapaev, A Madrakhimov, *The transformation of social consciousness and intelligence of rural population on social life of Uzbekistan*, Norwegian Journal of Development of the International Science, 54-56.
9. Kutlimurodov S., Sapayev V. INSON ONGI-MILLIY G'OYA TIZIMI ELEMENTI SIFATIDA.
10. Мамараджабов, Б. (2023). САУДИЯ АРАБИСТОНДАГИ ЎЗБЕК МУҲОЖИРЛАРИ ТАРИХИ: МУВАФФАҚИЯТЛИ АССИМИЛЯЦИЯ ВА ЙЎҚОТИЛГАН МИЛЛИЙ ИДЕНТИКЛИК. *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences.*, 3(S/6).
11. Mamarajabov, B. N. O. L. (2021). SAUDIYA ARABISTONDAGI OZBEK (TURKISTONLIK) LARGA DOIR TARIXIY JARAYONLAR. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(11), 895-900.